

QISHLOQ XO‘JALIGI SUG‘ORILADIGAN YERLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Azim Jumayevich G‘ofirov

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD).

gofirov71@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10774947>

Annotasiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi yerlarning holati tahlil qilinib ularning qisqarib borish sabablari o‘rganilgan. Unda qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlaridan maqsadli hamda samarali foydalanish masalalari va ularning meliorativ holatini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar dasturlari tahlil qilinib, ulardan yanada samarali foydalanish bo‘yicha tegishli takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, yer, yer resurslari, qishloq xo‘jaligi yerlari, sug‘oriladigan yerlar, yerlarning meliorativ holati, yerlardan maqsadli va samarali foydalanish.

IMPROVING THE EFFICIENCY OF AGRICULTURAL IRRIGATED LAND USE

Abstract. The article analyzes the state of agricultural lands of the Republic of Uzbekistan and studies the reasons for their reduction. It analyzed the issues of targeted and effective use of agricultural irrigated land and the program of implemented measures to improve their reclamation state, presented relevant proposals for their further effective use.

Key words: agriculture, land, land resources, agricultural land, reclamation state of irrigated land, targeted and efficient use of land.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ

Аннотация. В статье проанализировано состояние сельскохозяйственных земель Республики Узбекистан и изучены причины их сокращения. На нем проанализированы вопросы целевого и эффективного использования сельскохозяйственных орошаемых земель и программы реализуемых мер по улучшению их мелиоративного состояния, представлены соответствующие предложения по их дальнейшему эффективному использованию.

Ключевые слова: сельское хозяйство, земля, земельные ресурсы, сельскохозяйственные угодья, мелиоративное состояние орошаемых земель, целевое и эффективное использование земель.

KIRISH.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi yer bilan, birinchi navbatda undan foydalanish bilan bog‘liq. Negaki inson xayoti-faoliyatining asosiy vositasi hamda mamlakat boyligining boshlang‘ich manbai bo‘lgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qolaveradi. Shunday ekan, mavjud yer maydonlaridan, ayniqsa sug‘oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha zaruriy ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Aholi sonining yildan – yilga o‘sib borishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini, aholini ish bilan ta‘minlashni to‘xtovsiz oshirib borishni talab qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ekn maydonlarini kamaytirishni hamda ular hosildorligini oshirib borishni taqozo qilmoqda.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2023 yil 1 yanvar holatiga respublikamizni umumiy yer maydoni 44896,4 ming ga ni, shundan haydalma yerlar 4028,5 ming gani, ko'p yillik daraxtzorlar 438,5 ming gani, yaylov va pichanzorlar 21215,4 ming gani tashkil etadi. Bu maydonlar bugungi kunda turli huquqlar asosida foydalanish maqsadlarida fermer xo'jaliklariga, dehqon xo'jaliklariga, korxonalar, muassasa va tashkilotlarga berilgan¹.

1980 yilda aholi jon boshiga o'rtacha 0,22 gektar sug'oriladigan yer maydoni to'g'ri kelgan bo'lsa, 1990 yilga 0,20 gektar, 2000 yilda esa 0,17 ga, 2010 yilda esa 0,15 ga, 2018 yilda esa 0,1 ga, 2023 yilga kelib 0,09 gektarni tashkil etdi. Demak yildan yilga jon boshiga ekin maydonlari qisqarib bormoqda. Shu sababli, ekinlar hosildorligini oshirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning eng dolzarb va asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda [2,3].

TADQIQOTNING OB'EKTI VA USULLARI.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Respublika bo'yicha qishloq xo'jalik yer turlari maydonlari xizmat qilgan. Tadqiqotning usullari sifatida. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy-matematik, qiyosiy tahlil, monografik va boshqa usullaridan foydalanilgan, olingan ma'lumotlar B.A.Dospexov qo'llanmasi bo'yicha (1985 y.) va Microsoft Excel dasturida matematik - statistik tahlil qilingan [1].

TADQIQOT NATIJALARI.

Ma'lumki, jamiyat qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan dehqonchiikka asoslangan, 95-96 foiz qishloq xo'jalik mahsulotlari aynan sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keladi. Shu sababli ham sug'oriladigan yerlarni mahsuldorligini oshirish, ular maydonlarini kamaytirmasdan aksincha mumkin qadar kengaytirish, sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini tiklash va oshirish, sug'orish suvidan samarali foydalanishni yaxshilash, doimo mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Ammo o'tkazilgan tahlil natijalari ko'rsatadiki, qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum miqdori qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqib ketmoqda. Bu holat asosan noqishloq xo'jalik ob'ektlarini joylashtirish, aholi yashash joylarini kengaytirish, tabiiy hamda inson ta'siri jarayonlari ta'sirida yerni suv va shamol eroziyasiga uchrashi, qayta sho'rlanishi, botqoqlashishi natijasida ro'y bermoqda.

Respublikamizda 2,7 mln ga dan ortiq qishloq xo'jaligi yerlari suv eroziyasiga, 20,4 mln ga dan ortig'i shamol eroziyasiga 2 mln ga dan ortiq yerlar esa bira to'la suv va shamol eroziyasiga uchragan. Sug'oriladigan maydonlarning 11,3 foizi suv va 54,7 foizi shamol eroziyasiga uchragan, 53,0 foizdan ortiq maydonda sho'rlanish kuzatilmoqda [13].

Bularning natijasida 2023 yilga kelib 1990 yilga nisbatan sug'oriladigan haydalma yerlar maydoni 4,85 foizga, qishloq xo'jalik yerlari 2,47 foizga kamaygan bo'lsa, ko'p yillik daraxtzorlar maydoni 11,37 foizga, bo'z yerlar 99,23 foizga, pichanzor va yaylovlar maydoni 12 foizga ko'paygan [2,3] (1-jadval).

1 – jadval

Respublika bo'yicha qishloq xo'jalik yer turlari maydonlarining o'zgarish²

¹ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida milliy hisoboti. T., 2023.

² O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi Milliy hisobotlari 2005-2020 yy, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining

№	Yer turlarining nomi	Maydoni, ming ga							2023 yilni 1990 yilga nisbatan farqi
		1990	2004	2008	2012	2016	2020	2023	
1	Haydalma yerlar	4176,5	4042,7	4068,6	4064,7	4040,8	4033,5	4028,5	-3,54
	Shu jumladan sug'oriladigan	3407,3	3297,7	3310,7	3307,3	3284,5	3259,9	3242,1	-4,85
2	Ko'p yillik daraxtzorlar	366,8	337,0	342,3	356,7	380,8	403,8	438,5	+19,54
	Shu jumladan sug'oriladigan	354,5	323,5	329,0	341,5	362,4	380,5	394,8	+11,37
3	Bo'z yerlar	62,1	84,5	82,5	80,4	80,0	83,7	86,6	+39,45
	Shu jumladan sug'oriladigan	25,9	48,3	48,3	47,0	46,9	48,7	51,6	+99,23
4	Pichanzor va yaylovlar	23475	21217,1	20872,2	20720,4	21128,4	21118,0	21215,4	-9,63
	Shu jumladan sug'oriladigan	37,5	43,9	43,1	43,0	43,0	42,9	42,0	+12
5	Qishloq xo'jalik yerlari jami	28080,4	25681,3	25365,6	25252,2	25630	25639	25769	-8,23
	Shu jumladan sug'oriladigan	3825,0	3713,4	3731,1	3738,8	3736,8	3732	3730,5	-2,47

To'g'ri bu maydonlarning asosiy qismi fuqorolar tomorqa yerlari maydonlarini kengaytirish va sanoat tarmoqlarini qurish uchun ajratilgan. Lekin shu bilan bir vaqtda ushbu muddat ichida sug'oriladigan bo'z yerlar maydoni 25,7 ming ga, 99,2 foizga o'sgan. Bo'z yerlar tarkibiga samarasiz foydalanish natijasida, sug'orish qoidalarining buzilishi va tuproq meliorativ holatining yomonlashishi, eroziya ta'siri, kuchli sho'rlanishi gipslashishi hamda yangi o'zlashtirilgan yelar holatining yomonlashishi oqibatida, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi (oborot) dan chiqib qolgan sug'oriladigan va lalmi ekin yerlari kiradi. Umuman qishloq xo'jalik korxonalarini hududida bo'z yerlar mavjud bo'lishi va yildan yilga ko'payib borishi tashvishli holatdir. Bu sug'oriladigan haydalma yerlardan foydalanishda agrotexnik, tashkiliy xo'jalik jihatlardan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar natijasidir. Bu esa o'z navbatida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Jumladan, 1990 yilga nisbatan 2023 yilda

25,7 ming gektarga oshgan bo‘lib bo‘z yerlarning ko‘payishi sug‘oriladigan haydalma yerlarning kamayishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda maydonlarning sho‘rlanishi va qayta sho‘rlanishiga hamda sug‘oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanishi, eroziyaga uchrashi va boshqa salbiy ta‘sirlar natijasida tuproqlar unumdorligi keskin pasayib bormoqda. 2020 yil 1 oktyabr holatiga O‘zbekistondagi sug‘oriladigan yerlarning 44,7 foizi turli darajada, xususan 31,0 foizi kuchsiz, 11,9 foizi o‘rtacha, 1,9 foizi esa kuchli sho‘rlangani aytilgandi. 2023 yilda qayd etilishicha, so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar respublikada sug‘oriladigan yerlarning qariyb 53 foizi turli darajada sho‘rlangani, 69 foizga yaqin tuproq ustki qatlamida gumus miqdori 0,5-1 foizni tashkil etgani, 600 ming gektar yaylov yerlari degradasiyaga uchraganini ko‘rsatgan³. Buni Respublikamiz bo‘yicha davriy o‘tkazilayotgan yer baholash ishlarining natijalaridan ham ko‘rish mumkin. Olingan ma‘lumotlarga qaraganda, masalan 2008 yilda 3606,878 ming ga yer maydonlari baholanib 83,693 ming ga yuqori sifatga (81-100 ball) ega bo‘lgan bo‘lsa 2023 yilda 3334,91 ming ga yer baholanib, uning 62,81 ming ga yuqori sifatga ega bo‘lgan [2,3].

2-жадвал

Tuproq sinflari sifati, bonitet ballari	Haydalma yerlar maydoni, ming ga			
	yillar			
	2008	2013	2018	2023
I-81-100 ball-yuqori	83,693	75,038	73,091	62,81
II-61-80 ball-yaxshi	900,094	974,385	991,272	954,9
III-41-60 ball-o‘rtacha	1738,199	1875,243	1947,625	1908,3
IV-21-40 ball-o‘rtachadan past	875,130	736,686	657,056	408,9
V-1-20 ball-yomon	9,762	1,968	0,526	-
Respublika bo‘yicha	3606,878	3663,32	3669,57	3334,91

2-jadvaldagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, haqiqatdan ham o‘tgan 16 davomida 81-100 ballik haydalma yerlar maydoni deyarli 20883 gektarga 24,95 % ga, 21-40 ballik yerlar 53,27 % ga kamaygan va aksincha 41-60 ballik yerlar maydoni 9,78 % ga oshgan. Bu ma‘lumotlar haqiqatdan ham sug‘oriladigan haydalma yerlar sifatini yomonlashib ketayotganligini bildiradi.

Mamlakatimiz qishloq ho‘jaligi ishlab chiqarishida foydalanilayotgan asosiy yer maydonlaridagi tuproqlarning unumdorligini pasayib borayotganligini almashlab ekish tizimining qo‘llanilmayotganligi, yerlarga ishlov berish sifatining pastligi, sug‘orish, ayrim yerlarda ekinlardan hosil olishda faqat mineral o‘g‘itlar qo‘llanishi (bu tuproq tarkibidagi makro va mikro ozuqa elementlarining maqbul nisbatini keskin o‘zgarishiga olib keladi), hamda yer tuzishning barcha ilmiy yutuqlari bilan to‘liq amalda qo‘llanmasligi sabab bo‘lmoqda. Buning oqibatida tuproq tarkibidagi gumusni kamayishi, tuproq strukturasi buzilishi, zichlashishi, tuproqda ekinlarga kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlarning ko‘payib borayotganligi, tuproqning zaharli moddalar bilan ifloslanishi, ikkilamchi sho‘rlanish, eroziyaga uchrashi va boshqa salbiy holatlar kuzatilmoqda.

³ <https://kun.uz/kr/45695026>

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan salbiy holatlar shuni ko'rsatadiki, ekin maydonlaridan kutilgan hosilni olish maqsadida bugungi dehqonchilikning mavjud agrotexnikasiga aniqrog'i, agrotexnologiyasiga asoslanib olib borish, umuman olganda, yerdan foydalanishning bugungi holati, fikrimizcha tuproqlar unumdorligini pasayib ketish tendensiyasini keltirib chiqarmoqda.

Vaholangki, dehqonchilik o'zining asli ta'rifi bo'yicha yerlardan yildan yilga yuqori sifatli hosil yetishtirish bilan bir qatorda tuproq unumdorligini oshirib borishga xizmat qilishi kerak. Shuning uchun ham uzoq yillar davomida olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga suyangan holda ushbu sug'oriladigan maydonlar unumdorligin tiklash va oshirish, tuproqlar sho'rlanishini kamaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi sub'ektlar tuproq ma'lumotlariga, yer kadastri bo'yicha aniq va to'liq axborotlarga va xaritalarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq;

- qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishni to'g'ri va aniq belgilash, to'g'ri tanlash va ular faoliyatini qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish bilan birga to'g'ri yo'naltirish zarur;

- hududlarda yer tuzish ishlarini o'tkazishda atrofdagi xo'jalik yurituvchilar bilan muvofiqlashtirib, mukammal ilmiy asosda tuproq unumdorligini oshirishga yo'naltirilgan holda ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash lozim;

- yer tuzishni o'tkazishda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi sub'ektlar dehqonchilik bilan chorvachilikni maqbul nisbatda bo'lishini e'tiborga olish va ularni rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olishlari lozim;

- xo'jaliklarda yer tuzishda ekinlarni almashlab ekish, ekinlarni joylashtirish sxemalarini qo'llash asosida tuproqning kimyoviy tarkibini yaxshilash va unumdorligini oshirib borishga mo'ljallangan bo'lishi kerak, buning uchun esa har gektar yerga har yili yoki bir necha yilda bir marta ma'lum miqdorda, ya'ni imkoniyatga qarab tuproqni moddalarga boyituvchi ekinlar ekilishi zarur;

- takroriy ekinlar ekishda tuproqqa ishlov berishni iloji boricha minimallashtirish va kam chuqurlikda (10-15 sm) olib borish, ishlov berish mexanizmlarini yengillashtirish, ularning bir marta yurganda bir necha funksiyalarni bajarishini ta'minlash zarur (Linken apparati – Angliya texnologiyasi) tuproqni ekishga tayyorlaydigan resurstejamkor kombinasiyalashgan mashina tuproqni zichlanishini oldini oladi, eroziyadan himoya kiladi, namni yo'qolishini kamaytiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, sarf-xarajatlar va tuproqni ekishga tayyorlash muddatini keskin kamaytiradi;

- qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarini qo'llash (suv tejaladi, ikkilamchi sho'rlanish, eroziyaga uchrash kamayadi, yerlarning meliorativ holati yaxshilanadi) kerak;

- taklif etilayotgan tavsiyalarni umumlashtirgan holda agroekotizimlarni tuproq hosil bo'lish jarayonlarida yuqori darajadagi unumdorlikka erishishini bir butun texnologik jarayon darajasiga ko'tarish zarur [4,5,6,7,8,9,10,11,12].

Shunday qilinganda to'liq komponentli unumdor tuproqqa ega bo'lgan yuksak darajada madaniylashgan agrolandshaftlar hosil bo'ladi, qishloq xo'jaligi va boshqa turdagi yer egaligida

foydalaniladigan yerlar eng arzon, kompleks, har qanday nav va turdagi ekinlar talabiga muvofiq keladigan holdagi ozuqa elementlari nisbatiga ega bo'lgan organik o'g'it, go'ng, kompostlar bilan kerakli miqdorda o'z joyida ta'minlanadi, bu o'g'itlar ta'sirida esa ekologik toza sifatga ega bo'lgan har xil sara qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi, yengil sanoat va qayta ishlovchi ishlab chiqarish sanoati ham xomashyo bilan ta'minlanadi. Pirovard natijada, yerdan foydalanish jarayoni to'liq, sermahsul, undan olinayotgan mahsulot ekologik toza bo'lishi ta'minlanadi, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi.

REFERENCES

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.:Агропромиздат, 1985. С.415.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida milliy hisoboti. T., 2021-2023.
3. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi Milliy hisobotlari 2008-2020 yu.
4. Т.М. Карабаева, А.Ж. Гофиров. Обследование и картографирование земельных ресурсов с использованием ГИС технологии. Международный научный сельскохозяйственный журнал. №1. 2019 с.47-49.
5. Gafirov Azim Jumaevich, Isaev Sabirjan Xusanbayevich. Effects of autumn
6. wheat feeding on grain yield in light grain soil conditions, L Reclamation - Solid State Technology, 2020.
7. Исаев С.Х., Гофиров А.Ж. Влияние подкормки при возделывании озимой пшеницы на урожайность в разной степени засоленных почвах// "Современные научные исследования. Актуальные вопросы, достижения и инновации" мавзусидаги XIII халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами, 15 август, Пенза, 2020 йил, -Б. 93-95
8. A.J.G'ofirov, S.X.Isaev //Turli darajada sho'rlangan tuproqlarda kuzgi bug'doyning oziqa rejimi/ Monografiya //“Impress Media” MChJ bosmaxonasi. Toshkent, 2023. –B. 128. ISBN 978-9943-9469-1-0
9. Isaev S.X., Gofirov A.J. Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doyning Andijon-2 va Andijon-4 navlaridan yuqori sifatli don hosili olish bo'yicha tavsiyanoma //“Impress Media” MChJ bosmaxonasi. Toshkent, 2020. –B. 50.
10. A.J.Gofirov. Sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini ihmly amally jurnali. №6. 2018. 10-11 B.
11. A.J.Gofirov Qashqadaryo viloyatida yerlarni agroekologik baholash tizimini takomillashtirish (Monografiya) TIMI, 2015/11/27. №3
12. Повышения использования орошаемых земель на основе оценки агроэкологического потенциала территории. Журнал Экономика и финансы Том 2. №5. 2011.
13. А.Ж.Гофиров, С.Х.Исаев. Орошение озимой пшеницы на различных засоленных почвах. Актуальные проблемы современной науки, №2. 2020.105-109 с.
14. <https://kun.uz/kr/45695026>